



**INGLIZ TILIDA TALABALARNING GAPIRISH KO’NIKMASINI
RIVOJLANTIRISH**

Toxirova Nafosat Murodjon qizi

Sam DChTI talabasi

Nafosatmurodovna53@gmail.com

Chexrangiz Salimovna

Ilmiy rahbar: Sam DChTI o’qituvchisi

dchuomm@gmail.com

Annatatsiya: ushbu maqolada gapirish ko’nikmasini rivojlantirish va uning ahamiyatini gapirish uchun asosiy usullalar,mashq qilish,tinglash va tushunish,o’z nutqini baholash,dastur va texnologiyalar yordamida gapirishni rivojlantirish ,ko’nikmalarini ijtimoiy hayotda qo’llash,natijalar va davomiy o’sish haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: suhbat, talaffuz, so’z boyligi, aksent, mobil ilovalar, jurnal, kitoblar, maqola, tinglash, tushunish, til

Gapirish ko’nikmasini rivojlantirish-bu komunakatsiya va ijtimoiy muvaffaqiyat uchun zarur bo’lgan qobiliyatlarni takomillashtirish jaroyonidir.Gapirish ko’nikmasi har bir insonning shaxsiy hayoti uchun muhum ro’l o’ynaydi.Yaxshi gapiruvchi bo’lish o’z fikrini yorqin va aniq ifodalash,boshqalarni fikrini tinglash va tushunish va ular bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Bu esa o’z navbatida imkoniyatlар eshigini ochadi.Ish faoliyatida yaxshi muloqot qilish,xalqaro aloqalarning mustahkamlanishi va shaxsiy o’sishni oshiradi. Gapirish ko’nikmasini rivojlantirishning eng yaxshi yo’li doimiy mashq qilish ya’ni doimo muloqotda bo’lishdir. O’z fikrini yozish:Fikrini tizimli ravishta yozish o’z nutqingizni yaxshilash imkonini beradi. Yozish davomida fikrlarni to’g’ri aniq ifodalanishini o’rganish muhum. Nutqni o’stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920-yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi,so’ng mustaqil fan sifatida shakllanadi. Nutq-bu tilni ishga olish jarajonidir. Sub’yektning nutqiy faoliyati ichki vosita va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o’z ichiga oladi.Nutq-bu psixik hodisa, kishilarning shaxslararo o’zaro muayyan hamkorligi sharoitida rivojlanadigan,individual xususiyatlariga ega bo’lgan shaxs mulkidir. U tildan farqli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish-bu oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o’tishdan iborat bo’lgan o’zgarish;miqdoriy o’zgarishlarning asta-sekin yig’ilishi sifat o’zgarishining yuz berishiga olib keladigan jarayondir. Nutq asosida umumlashtirishlar, fiklashning ramziy vazifasi, ya’ni real narsalarning o’rnini almashtira olish hamda o’rin bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish qobiliyatları rivojlanadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Har bir nutqdan keyin o‘z xatolarimizni tahlil qilish va ularni tuzatishga harakat qilish lozim. Fikrlarni to‘g’ri va aniq ifodalashni o‘rganish muhum o‘rin tutadi. Kitob, gazeta va maqolalarni o‘qish so‘z boyligini kengaytiradi va ifoda qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Tushunish va tinglash gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda tinglash ham muhum ahamiyatga ega. Faqatgina gapirish emas balki boshqa insonlarni tushunish orqali ham samarali muloqot qilishimiz mumkun. Tinglash qobiliyatini rivojlantirish bilan nutq yanada aniqroq bo‘ladi. Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda o‘z nutqini tahlil qilish bu juda ham foydalidir. Nutqni yozib olish va qayta tinglash orqali o‘z xatolarini aniqlash mumkun. Gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni faqat shaxsiy hayotda emas, balki ijtimoiy aloqalarda ham qo‘llash muhumdir. Ovozning balandligini, ohang va to‘g’riligi ustida ishslash ham muhum. Bugungi kunda gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ko‘plab ilovalar mayjud. Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya’ni nutq sifatida kishilar o‘rtasida aloqa, fikrashish, so‘zlashishini amalga oshirishda yoqqol ko‘rinadi. Nutq faoliyati kishilarning bir birlariga tushunarli bo‘lgan til vositasida o‘zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishlaridir. Bu ilovalardan foydalanish uchun ilovalarni qo‘llab quvvatlash orqali nutqni tahlil qilish va har xil vaziyatlarda gapirishni mashq qilish, bo‘sh vaqtini mazmunli o’tkazish zarurdir. Do’stlar bilan muloqot qilish, fikrlarni baham ko‘rish va qarorlar qabul qilishda gapirish ko‘nikmasidan samarali foydalanish kerak. Shu bilan birgalikda ijtimoiy muhitda ham fikrni erkin ifodalay olish kerak va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ham muhum. Doimiy mashq qilish va yangi metodlarni qo‘llash orqali gapirishni yanada yaxshilash va kata o‘zgarishlarga erishish mumkun. Bunga erishish uchun albatta qati’yatli bo‘lish kerak. Darslar va suhbatlar davomida ingilish yoki boshqa tilni o‘rganayotgan bo‘lsangiz, ko‘propq suhbatlar qilishga harakat qiling. Gapirishda so‘z boyligi muhum o‘rin tutadi. Siz gapirishni o‘rganayotgan mavzuga oid so‘zlarni o‘rganish va ularni amalda qo‘llashga harakat qiling. Gapirishda talafuzni to‘g’ri bo‘lishi bu muhum. Talaffuzni yaxshilash uchun: Audio va vediolarni tinglash, vediolar ko‘rish va onlane podcastlarni eshitish tavsiya etiladi. Shaxsiy fikrlarni har kuni yoki haftada bir marta yozib, keyinchalik ularni og‘zaki ravishda aytishga harakat qiling. Bu esa tilni erkin va osan ravishda o‘rganishga va gapirish ko‘nikmalarini shakillanishiga yordam beradi. Nutqni boyitish uchun turli xil so‘zlar va ularning ma’nolarini bilish gapirishda to‘g’ri va samarali so‘z tanashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish bu har bir insonning shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan muhum qobiliyatdir. Yaxshi gapiruvchi bo‘lish, fikrlarni to‘g’ri va aniq tushunarli tarizda bayon etish imkonini beradi. Bu esa nafaqat shaxsiy balki professional hayotda ham yuksalishga imkon beradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asadova, C. S., & qizi Timirxanova, N. V. (2022). A QUICK AND EASY METHOD OF TEACHING ENGLISH FOR PRIMARY SCHOOL. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(1).
2. Asadova, C. S., & qizi Timirxanova, N. V. (2022). A QUICK AND EASY METHOD OF TEACHING ENGLISH FOR PRIMARY SCHOOL. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(1).
3. Makhmudova, J., & Asadova, C. (2024, April). THE GOALS AND OBJECTIVES OF USING GAME ACTIVITIES IN EDUCATION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 194-197).
4. Salimovna, A. C. (2023). TEACHING CHILDREN HOW TO SET ADEQUATE GOALS AND STRATEGIES. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).
5. Vygotsky L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1980.
6. Xayrullayevna, G., & Xurshed, H. (2024). DUNYO TILLARI TASNIFI BO ‘YICHA AYRIM MA’LUMOTLAR. TADQIQOTLAR. UZ, 35(4), 33-42.
7. Асадова, Ч. (2019). АБСТРАКТНЫЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫЕ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ. Актуальные научные исследования в современном мире, (1-3), 82-84.

